



BOSHLANG‘ICH SINFDAN O‘QUVCHILARIDA EKOLOGIK ONGNI

SHAKLLANTIRISHDA SINFDAN TASHQARI FAOLIYATNING

PEDAGOGIK AHAMIYATI

Abduraxmonova Dilshoda Sayfidin qizi

Abdulla Avloniy nomidagi Pedagogik Mahorat Milliy Institut

“Kattalar ta’limi” yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada ekologik muammolar tobora kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda boshlang‘ich ta’limda sinfdan tashqari mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarning ekologik ongini shakllantirish masalalari yoritilgan. Maqolada sinfdan tashqari ishlarning maqsadi, vazifalari, ularning o‘quvchilarda ekologik bilim, ko‘nikma va mas’uliyatni shakllantirishdagi o‘rni tahlil etilgan. Shuningdek, ekologik festivallar, tanlovlar, o‘yinlar, film namoyishlari kabi faoliyat turlarining pedagogik ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sinfdan tashqari ekologik ishlar bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish, tabiatni asrashga daxldorlik va fuqarolik mas’uliyatini kuchaytirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.



Kalit so‘zlar: ekologik tarbiya, sinfdan tashqari ishlar, ekologik ong, barqaror rivojlanish, ekologik mas’uliyat, boshlang‘ich ta’lim, ekologik faoliyat

Аннотация

В статье рассматривается вопрос формирования экологического сознания учащихся начальных классов через внеклассные занятия в условиях обострения экологических проблем. Определены цели и задачи внеклассной деятельности, её роль в формировании экологических знаний, навыков и ответственности школьников. Особое внимание уделено экологическим фестивалям, конкурсам, играм и просмотрам фильмов как эффективным педагогическим средствам. Установлено, что внеклассная экологическая деятельность способствует развитию экологической культуры, повышению ответственности и формированию активной гражданской позиции у учащихся.

Ключевые слова

Экологическое воспитание, внеклассная работа, экологическое сознание, устойчивое развитие, экологическая ответственность, начальное образование, экологическая деятельность

Kirish



Ekologik muammolar tobora jiddiy tus olayotgan hozirgi davrda boshlang'ich ta'limda sinfdan tashqari mashg'ulotlar orqali o'quvchilarning ekologik ongini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biridir. Bu turdagi faoliyatlar nafaqat ekologik bilimlarni mustahkamlash, balki bolalarda barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan hayotiy pozitsiyani shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Sinfdan tashqari ishlar — bu o'quvchilarning bilim, ko'nikma va tarbiyasini chuqurlashtirish, ularning qiziqishlarini rivojlantirish, ijodiy salohiyatini ochish maqsadida darsdan tashqari vaqtda tashkil etiladigan pedagogik faoliyat turlaridir [5].

Sinfdan tashqari faoliyatlar orqali o'quvchilar ekologik muammolarni nafaqat bilim darajasida angelaydi, balki ularga amaliy yechim topishga faol jalb etiladi. Bu esa ekologik ong va mas'uliyatni shakllantirishning eng muhim yo'nalishidir [3].


Ekologik tarbiyani samarali tashkil etishning muhim vositalaridan biri — bu o'quvchilarning bevosita ishtirokida o'tkaziladigan ekologik yo'naltirilgan tadbirlar, tanlovlar va festivallardir [9]. Bunday faoliyatlar o'quvchilarda ekologik ong va mas'uliyatni kuchaytirish, ularni ijtimoiy faol hayotga tayyorlash, ekologik muammolarga amaliy yechim izlashga rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi.



Sinfdan tashqari ishlarning maqsadi—o‘quvchilarning ekologik muammolarga bo‘lgan e‘tiborini kuchaytirish, ularni ekologik xavfsizlikni ta‘minlashda faol ishtirok etishga tayyorlash, atrof-muhitni asrashga daxldorlik tuyg‘usini shakllantirish [8].

Sinfdan tashqari ishlarning vazifalari:

- O‘quvchilarda ekologik bilim, tushuncha va qarashlarni mustahkamlash;
- Chiqindilar, suv, havo, o‘simliklar va hayvonot olami muhofazasi haqida amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish;
- Ekologik muammolarni aniqlash, tahlil qilish va yechim izlashga yo‘naltirish;
- Jamoada ishlash, ijtimoiy faollik, mas‘uliyat va ijodiy yondashuvni rivojlantirish;
- Mahalla, ota-onalar va turli tashkilotlar bilan hamkorlikda ekologik tashabbuslarni amalga oshirish [4].



Sinfdan tashqari ishlarning ekologik

muammolarni hal etishdagi o‘rni

Sinfdan tashqari ekologik faoliyat turlari:

—Ekofestivallar – ko‘rgazma, chiqishlar, afishalar, ko‘chat ekish;

—Ekologik viktorinalar va o‘yinlar – “Tartib bilan qo‘y”, “Toza/iflos”;

—Film namoyishlari va muhokamalar – ekologik videoroliklar asosida suhbatlar

[7].



Ekologik muammolarni hal qilishda sinfdan tashqari ishlar alohida ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, sinfdan tashqari ekologik tadbirlar orqali o‘quvchilar tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tabiatni asrab-avaylash bo‘yicha chuqur tushunchaga ega bo‘ladilar [1]. Bu jarayon ularning ekologik ongini shakllantirib, barqaror ekologik qadriyatlarga sodiqlikni oshiradi. Ikkinchidan, o‘quvchilar ekologik muammolarni o‘zlari tahlil qilib, ularni bartaraf etish jarayonida faol ishtirok etadi. Ular amaliy tadbirlarda qatnashish orqali ekologik muammolarning mohiyatini anglab, ular yuzasidan muqobil yechimlar ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Uchinchidan, sinfdan tashqari ekologik ishlar jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirib, o‘quvchilarda hamjihatlik, tashabbuskorlik va fuqarolik mas’uliyatini kuchaytiradi [6]. Bu esa ularni jamiyatda faol ekologik pozitsiyaga ega shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. To‘rtinchidan, bunday faoliyat jarayonida o‘quvchilar kreativ fikrlash, san’at va tasviriy ifoda vositalaridan foydalanib, o‘z g‘oyalarini erkin bayon eta oladilar. Shuningdek, ular ekologik masalalarga yangi va ijodiy yondashuvlarni taklif qilishga intiladilar.

Sinfdan tashqari ishlar dars davomida o‘zlashtirilgan bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatini yaratadi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat orqali mustahkamlashga yordam beradi va ularni real hayotda uchraydigan ekologik vaziyatlarga tayyorlaydi [2].



Sinfdan tashqari ekologik ishlar o'quvchilarda ekologik madaniyat, mas'uliyat, jamoaviylik va ijodiy yondashuvlarni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Sinfdan tashqari ekologik mashg'ulotlar o'quvchilarning ekologik ongini shakllantirish, ularni tabiatni asrashga, atrof-muhit muammolariga befarq bo'lmaslikka undashda muhim rol o'ynaydi. Bu faoliyatlar orqali bolalarda ekologik bilim, ko'nikma va qadriyatlar chuqurlashadi, ular tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sinfdan tashqari ekologik ishlar o'quvchilarda:

- ekologik madaniyatni rivojlantirish;
- ijodiy fikrlash va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini mustahkamlash;
- ekologik muammolarni hal etishga ijobiy yondashuvni shakllantirish;
- fuqarolik mas'uliyatini kuchaytirish imkonini beradi.

Demak, boshlang'ich ta'lim tizimida sinfdan tashqari ekologik mashg'ulotlarni tizimli va interfaol yondashuv asosida tashkil etish nafaqat ekologik tarbiya samaradorligini oshiradi, balki barqaror rivojlanish tamoyillariga sodiq bo'lgan yangi avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva Z. R. (2020). *Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi*. Toshkent: Noshir.
2. Axmedov A. (2023). *Ekologik muammolar va ularni hal etish yo'llari*. Toshkent: Ekosan.
3. G'ofurov K., Jo'rayev S. (2017). *Ekologik tarbiya asoslari*.
4. Ibragimov M., Po'latov A. (2018). *Boshlang'ich ta'lim metodikasi*
5. Jabborov T., Abduazizova D. (2019). *Pedagogika*
6. Muxamedova N. (2022). *Sinfdan tashqari faoliyatda innovatsion yondashuvlar*. Toshkent: Ilm-Fan.
7. Salomova M. (2021). *Ta'limda ekologik kompetensiyalarni rivojlantirish*.
8. Tadjibaeva N.N. (2020). *Ekologik madaniyatni shakllantirishda maktabning o'rni*.
9. Xolbekova D. (2022). *Ekologik tarbiyaning nazariy asoslari*. Xalq ta'limi.